




**2021- yil yanvar-sentabr
oylarida
SURXONDARYO VILOYATI
xizmatlar sohasining
rivojlanishi**

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Rivojlangan mamlakatlardagi xizmatlar sohasi iqtisodiyotda yetakchi o'rinni tutadi, uning rivojlanish darajasi esa odamlarning farovonligi va hayot sifatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bugungi kunda yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishni nazarda tutadi.



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7 292,5 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **1 608,5 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,7 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)

**7 292,5 mlrd.
so'm**

118,7 %

**1 608,5
mlrd. so'mga**

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	7292,5	118,7
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	342,1	120,1
Moliyaviy xizmatlar	1 493,7	128,8
Transport xizmatlari	1 181,6	118,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 093,9	116,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	199,4	109,4
Savdo xizmatlari	2 664,7	108,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	192,7	121,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	257,5	135,4
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	124,0	168,5
Ijara xizmatlari	192,7	146,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	192,5	121,1
Shaxsiy xizmatlar	202,2	115,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	90,6	121,0
Boshqa xizmatlar	158,8	140,1

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Ijara xizmatlari

2,7%

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

2,7%

Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari

2,6 %

2,2 %

Boshqa xizmatlar

1,7 %

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

1,2 %

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar

36,5%

20,5%

16,2%

4,7 %

3,5 %

2,8 %

2,7 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **36,5 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **39,1 %** ini tashkil etdi.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yuqori o'sish sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**68,5 %**), ijara xizmatlari (**46,9 %**), boshqa xizmatlar (**40,1 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlar (**35,4 %**), moliyaviy xizmatlar (**28,8 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**21,8 %**) kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (**21,1 %**), va ,me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (**21,0 %**) qayd etildi.


Buning sababi, korxona va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklowlarni yumshatish bilan bog'liq.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlari (**9,4 %**) sohasida qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taq qoslanishi, % da



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **119,1 %**.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan – **69,8 %**.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'r-satilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-sentabr

2021- y. yanvar-sentabr

63,8

65,3

36,2

34,7

Yo'lovchi tashish

Yuk tashish

2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **34,7 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **36,2 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **36,5 %** ni tashkil etib, bu esa **2 664,7 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **2 219,6 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **39,1 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2 219,6

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

2 664,7

98,3

O'sish sur'ati, % da

108,3

**2020- y.
yanvar-sentabr**


**2021- y.
yanvar-sentabr**

2021- yil yanvar-sentabr


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i 83,6 % ini tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)**



Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosini,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda



Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar



Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi 83,3 % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)

2021- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 493,7 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **1 129,8 mlrd. so'mga** teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **20,5 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **19,9 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **363,9 mlrd. so'mga** ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **28,8 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ularning o'sish sur'ati **129,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **94,2 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **2,4 %** ini tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **3,4 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **95,2 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,8 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,0 %**.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)


2021- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **342,1 mlrd. so'm** darajasida belgi-landi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati **120,1 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:
2020- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turi hajmi **281,7 mlrd. so'm** yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining **5,0 %** iga teng bo'lgan.
O'sish sur'ati esa **108,2 %** ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Xizmatlar hajmi


Jami hajmdagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **94,6 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,2 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lif va fan sohasini rivojlantirish – uzlusiz **ta'lif tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-sentabr oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **257,5 mlrd. so'mga** yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **3,5 %** ni tashkil etdi.


2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **135,4 %** ni tashkil etdi.

**183,7
mlrd.
so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**257,5
mlrd.
so'm**

**2020- y.
yanvar-
sentabr**



**2021- y.
yanvar-
sentabr**

119,1 %

**O'sish sur'atlari,
% da**

135,4 %

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida xizmatlar hajmi **183,7 mlrd. so'mga** teng bo'lган.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

159,3
mlrd. so'm

2020- y.
yanvar-sentabr

199,4
mlrd. so'm

2021- y.
yanvar-sentabr

Xizmatlar hajmi

85,3 %

109,4 %

O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **40,1** mlrd. so'mga ortdi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-sentabr

Yashash bo'yicha
xizmatlar

8,8 %

91,2 %

6,5 %

93,5%

Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2020- y. yanvar-sentabr

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyo'jajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **91,2 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,5 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
yanvar-
sentabr




2020- y.
yanvar-sentabr

124,0
mlrd. so'm

1,7 %

168,5 %



Xizmatlar
hajmi


Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi

O'sish
sur'ati

70,2
mlrd. so'm

1,2 %

97,0 %



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Surxondaryo viloyati	7292,5	118,7	102,3
Termiz sh.	1949,1	118,2	103,3
tumanlar:			
Oltinsoy	299,1	117,9	100,7
Angor	328,7	115,4	100,6
Bandixon	170,2	116,6	101,0
Boysun	235,7	119,3	101,8
Muzrabot	335,1	117,1	100,9
Denov	901,8	121,5	102,4
Jarqo'rg'on	454,0	120,9	101,0
Qumqo'rg'on	458,6	119,4	101,6
Qiziriq	294,2	117,4	100,9
Sariosiyo	443,4	118,0	100,7
Termiz	322,0	119,6	100,3
Uzun	314,9	116,3	101,8
Sherobod	400,9	119,9	100,4
Sho'rchi	384,8	119,0	101,0


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi eng katta ulush – **26,8 %** (2020- yil yanvar-sentabr oylarida – **45,8 %**)ni Termiz shahri tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Bandixon tumanida – **2,3 %** (2020- yil yanvar-sentabr oylarida – **0,6 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmning o'sishi



O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 697,5** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **116,3 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 146,5** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,1 %** da qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- oktabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari



**17 205
birlik**



**2 266
birlikga**



115,2 %

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi


Ularning umumiyl sonidagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **60,5 %**, sanoat **16,4 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **13,1 %** ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **10,0 %** ga to'g'ri keldi.

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **60,9 %** ni, sanoat **16,0 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **13,1 %** ni, qurilish **10,0 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni **(47,4 %)** egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **10,0 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **4,8 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,9 %** ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **2,5 %** ni tashkil etdi.

Savdo – 47,4

Boshqa turdag'i xizmatlar – 33,4

Yashash va ovqatlanish bo'yicha – 10,0

Tashish va saqlash – 4,8

Sog'liqni saqlash – 2,5

Axborot va aloqa – 1,9


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **66,3 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **54,7 %** ga to'g'ri keldi.

2021- y.
1- sentabr
holatiga
2020- y.

